

TARIXIY ASARLAR MATNINI TADQIQ QILISH USULLARI

Raximova Altin Kadambayevna

Urganch innovatsion universiteti Mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: altinrakhimova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tarixiy asarlar matnini tadqiq qilishning ilmiy-uslubiy yondashuvlari tahlil qilinadi. Tarixiy matnlarni o'rganishda tekstologik, lingvistik, tarixiy-taqqoslash va kontekstual tahlil metodlarining ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalarida tarixiy matnlarning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari, ularning zamonaviy til bilan bog'liqligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Maqola tarixiy asarlar orqali til taraqqiyotini chuqur anglash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *tarixiy asar, tekstologiya, lingvistik tahlil, kontekstual yondashuv, tarixiy-taqqoslash, tilshunoslik.*

Kirish

Matnshunoslikning tarixiy ildizlari eng qadimgi davr yozma yodgorliklari matnini o'rganishga borib taqaladi. Insoniyat tarixida ixtiro qilingan har bir kashfiyot, avvalo, ijtimoiy hayot ta'sirida yuzaga keladi va ko'p asrlik an'analar doirasida shakllanib boradi. Yozma yodgorliklar matni bevosita yozuv tarixi bilan bog'lanadi. Dastlab piktografik yozuv kashf qilingan. Bu yozuvda chizilgan shakllar asosida odamlar mantiqiy fikr yuritib gap tuzgan. Piktografik yozuv taraqqiyoti asosida ligografik yozuv vujudga keldi. Piktogramma to'g'ridan-to'g'ri predmetni rasm orqali ko'rsatsa, ligogramma so'zning ma'nosini tushuncha orqali ifodalaydi. Bunda tildagi har bir so'z o'z ramziy timsoliga ega bo'ladi. Iyeroglifik yozuv logografik yozuvning rivojlangan, mukammal ko'rinishidir. Piktografik, ligografik va iyeroglifik yozuvlar taraqqiyoti natijasida fonografik yozuv vujudga keldi. So'z tovush orqali idrok etilib, har bir eshitilayotgan tovushga alohida belgi (harf) qabul qilish istagi fonografik yozuvni yuzaga keltiradi. Matnshunoslikning tarixiy taraqqiyotini kuzatish bu davrlarda yig'ma matnlar, juzvbo'laklar holidagi alohida matnlar, sharh-matnlar ancha keng tarqalganini ko'rsatadi. Albatta, bu jarayonlar o'zbek matnshunosligida muayyan prinsiplarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

Tarixiy asarlar xalqning madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayotini, shuningdek, milliy tafakkur va til tarixini aks ettiruvchi yozma manbalar hisoblanadi (Rahmonov, 2020). Ularni ilmiy asosda tadqiq qilish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tilshunoslik va tarix fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Tarixiy matnlar arxaik leksika, murakkab grammatik tuzilmalar va davrga xos stilistik xususiyatlarga ega bo'lgani sababli ularni to'liq anglash uchun maxsus metodlar talab etiladi (Karimov, 2019).

Tarixiy matnlarni o'rganishning ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ular orqali:

Milliy tilning rivojlanish bosqichlari aniqlanadi;

Madaniy va tarixiy hodisalar bilan bog'liq leksik birliklar tahlil qilinadi;

Matnshunoslik va lingvistik tadqiqotlar uchun manba yaratiladi.

Shu maqsadda maqolada tarixiy asarlarni tadqiq qilish usullari, ularning amaliy qo'llanilishi va ilmiy ahamiyati kengaytirilgan tarzda yoritiladi.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot jarayonida 5ta usullar qo'llanildi:

Tekstologik tahlil – matnning qo'lyozma va nashr variantlarini solishtirish, asl nusxani aniqlash. Bu usul tarixiy matnning ishonchliligini baholash va matndagi variantlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash imkonini beradi (Qodirov, 2018).

Lingvistik tahlil – fonetik, morfologik, leksik va sintaktik birliklarni o'rganish orqali matnning til xususiyatlarini aniqlash.

Tarixiy-taqqoslash usuli – matn tarkibidagi voqealar, termin va iboralarni davrlar kesimida solishtirish orqali tilning rivojlanish dinamikasini aniqlash (Rahmonov, 2020).

Kontekstual tahlil – matn mazmunini ijtimoiy, siyosiy va madaniy kontekst bilan bog'lash. Bu yondashuv matnning tarixiy voqealar bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi.

Semantik tahlil – qadimgi so'zlarning ma'nosini va ularning zamonaviy til bilan aloqasini aniqlash.

Tadqiqot uchun tanlangan matnlar orasida O'zbekiston tarixiy manbalari, klassik she'riy asarlar va qadimgi hujjatlar mavjud bo'lib, ular turli davrlarni aks ettiradi.

Natijalar

Tekstologik tahlil matnning asl nusxasini aniqlash va variantlar o'rtasidagi tafovutlarni belgilashga yordam berdi. Lingvistik tahlil qadimgi leksik birliklarning ma'nosini ochib berdi, ular orqali o'quvchilar va tadqiqotchilar milliy tilning rivojlanish bosqichlarini anglab yetishlari mumkin. Tarixiy-taqqoslash usuli yordamida matndagi davrga xos stilistik va grammatik xususiyatlar aniqlanib, ular zamonaviy o'zbek tili bilan bog'landi. Kontekstual tahlil esa matn mazmunini o'sha davrning siyosiy va madaniy vaziyati bilan uyg'unlashtirish imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, tarixiy asarlarni o'rganishda kompleks yondashuv, ya'ni tekstologik + lingvistik + tarixiy-taqqoslash + kontekstual metodlarni uyg'un qo'llash eng samarali hisoblanadi.

Muhokama va xulosa

Tarixiy asarlarni tadqiq qilish nafaqat matnshunoslik, balki tilshunoslik, tarix va madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. Tadqiqot shuni ma'lum qiladi. Tarixiy matnlarni chuqur o'rganish o'quvchilarning tarixiy va lingvistik tafakkurini rivojlantiradi. Turli metodlarning uyg'un qo'llanilishi ilmiy natijadorlikni oshiradi. Olingan natijalar ona tili ta'limida tarixiy asarlar bilan ishlashni samarali tashkil etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдурахмонов F, Рустамов А. Қадимги туркий тил. – Тошкент: Фан, 1982
2. Rahmonov N. Tarixiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Universitet, 2020.
3. Karimov A. O'zbek matnshunosligi. – Toshkent: Fan, 2019.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

Vol 2. No 5,

4. Qodirov P. Tarix va adabiyot uyg'unligi. – Toshkent, 2018.
5. Yo'ldoshev J. Tarixiy matnlar va til. – Toshkent, 2021.
6. Abdullayeva M. Matnshunoslik va lingvistika. – Toshkent, 2022.